

# INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI



<https://innoworld.net>



+998945668868

ILMIY JURNAL

 JOURNALS  
MASTER LIST

 INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL

 doi

 zenodo

 OpenAIRE

 Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

 Google Scholar

 open access.nl

## AVTOBUS YO'NALISHI VA YO'NALISH PASPORTI

**Usmonov Azizbek**

Andijon Mashinasozlik Insituti

"Avtomobilsozlik va transport" fakulteti

"Transport logistikasi" yo'nalishi

3-bosqich talabasi

e-mail : [sr4usmanov9717@gmail.com](mailto:sr4usmanov9717@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada avtobus yo'nalishi, yo'nalish pasporti , avtobus yo'nalishini tashkil etish to'g'risida bir qancha m'lumotlar keltirilgan. Avtobus yo'nalishi turlari, yo'nalish tashkil etish uchun qo'yiladigan talablar, tenderda ishtirok etish bosqichlari haqida ma'lumotlar berilgan. Jamoat transport tizimi yanada takomillashtirish borasida bir qancha chora-tadbirlar olib borilmoqda.

**Kalit so'zlar;** Diametral yo'nalish; Radial yo'nalish; Yarim halqasimon; Tangensial yo'nalishlar; Aralash yo'nalishlar; brutto-shartnoma.

Avtobus yo'nalishi — bu avtobusning belgilangan manzillar bo'ylab qatnovini amalga oshiradigan, aniq va doimiy yo'l harakati mashruti. Har bir yo'nalishning o'ziga xos raqami, boshlanish va tugash nuqtalari, shuningdek, avtobuslar boradigan stansiyalar va to'xtash joylari mavjud. Avtobus yo'nalishlari shahar ichidagi va shahardan tashqaridagi transport tizimlarini tashkil etadi.

Shahar aholisining soniga qarab shaharlar quyidagi turlarga ajratiladi:

- juda yirik ,aholi soni 2—2,5 mlndan ko'p;
- yirik , aholisi 200—500 ming nafar;
- o'rtacha , aholisi 100—200 ming nafar;
- kichik , aholisi 100 ming nafardan kam.

**Diametral yo'nalish** Shaharning bir chetini ikkinchi cheti bilan shahar markaziy hududlarini kesib o'tib, shahar markazini chetlari bilan hamda shahar

chetki hududlarini o'zaro bog'laydi.

**Radial yo'nalish** shahar chetidagi so'nggi nuqtadan markaz tomon yo'nalgan bo'ladi bunday yo'nalishlar shahar chetlarini markaz bilan, chekka joylarni tuman markazlari yoki metro yo'nalishlari bilan bog'laydi.

**Yarim halqasimon** yo'nalish shahardagi ikki tuman markazlarini o'zaro bog'laydi.

**Halqasimon yo'nalishlar** aylana yoki berk siniq, chiziqdan iborat bo'lib, shaharning o'zaro aloqaga muhtoj tarqoq nuqtalarini birlashtiruvchi yo'nalishdir.

**Tangensial yo'nalishlar** Shaharning ayrim tumanlarini markazga kirmay o'zaro bog'laydi.

*Aralash yo'nalishlar* yuqorida keltirilgan yo'nalishlarning bir necha elementlarini o'z ichiga oladi

Avtobus yo'nalishi pasporti asosiy hujjat bo'lib, quyidagilarni tavsiflaydi: marshrut, chiziqli tuzilmalar mavjudligi, to'xtash joylari, ular orasidagi masofa, sayohat narxi, yo'lning holati, shuningdek, avtobuslarning yo'nalish bo'yicha ishlashi. uning ochilish vaqtin.

Avtobus yo'nalish pasporti — bu yo'nalish bo'yicha avtobuslar harakatlanishini rasmiylashtirish va nazorat qilish uchun zarur bo'lgan hujjatdir. Avtobus yo'nalish pasportiga qo'yiladigan talablar turlicha bo'lishi mumkin, ammo umuman olganda quyidagi asosiy talablar kiritiladi:

1. Yo'nalish ma'lumotlari: Yo'nalishning nomi, yo'nalishning boshlanish va tugash nuqtalari, asosiy yo'l va ulangan shaharlar yoki qishloqlar.

2. Yo'nalishning uzunligi: Avtobus yo'nalishining umumiyligi va uning harakatlanadigan masofasi.

3. Yo'nalish bo'yicha avtobuslar harakati rejasi: Harakat qilish vaqtin, qaysi kunlarda avtobuslar qatnovi bo'lishi, qatnovning tezligi va yo'nalishda bajarilishi kerak bo'lgan tartib.

4. Yo'nalishning mavjudligi va litsenziyalar: Yo'nalishning davlat yoki mahalliy hokimiyat tomonidan tasdiqlanganligini ko'rsatuvchi hujjatlar va ruxsatnomalar.

5. Avtobuslarning xususiyatlari: Yo'nalishda qatnaydigan avtobuslar haqida ma'lumot (avtobuslarning o'lchami, sig'imi, texnik holati).

6. Yo'nalishning iqtisodiy samaradorligi: Yo'nalish bo'yicha avtobuslar harakati iqtisodiy jihatdan asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlar (boshqa tashuvchi xizmatlarga nisbatan raqobatbardoshlik).

7. Yo'nalishdagi xavfsizlik va sifat: Yo'nalish bo'yicha xavfsizlik choralar, yo'nalishning o'ziga xos muhofaza tizimlari va avtotransport xavfsizligi talablariga javob berishi.

8. Boshqa tashish xizmatlari bilan hamkorlik: Agar yo'nalish boshqa transport turlari (misol uchun, temir yo'l yoki havo yo'nalishlari) bilan integratsiya qilinadigan bo'lsa, bunday hamkorlik shartlari ham ko'rsatiladi.

Avtobus yo'nalishini yo'lga qo'yish uchun birinchi navbatda korxona vakolatli organ tenderlarida ishtiroy etishi lozim. Vakolatli organning tenderlarni tashkillashtirish va o'tkazish doirasidagi asosiy vakolatlari quyidagilar hisoblanadi:

- tegishliligi bo'yicha yo'nalishlarni ochish, yopish hamda o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilish;

- yo'nalishlarning pasporti va talablarini ishlab chiqish va axborot tizimiga kiritish;

- o'tkaziladigan tenderlar to'g'risidagi e'lolnarni (lotlarni) axborot tizimiga hamda ommaviy axborot vositalariga joylashtirish;

- tender g'olibining lot bo'yicha takliflar ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqiqiyligini o'rganish;

- tender g'olibining har bir avtovtransport vositasiga yo'lovchilarni muntazam yo'naliishlarda tashish huquqini tasdiqlovchi QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan elektron guvohnomalar berish;
- tender g'olib bilan shartnoma (brutto-shartnoma) tuzish;
- shartnoma (brutto-shartnoma) talab va shartlari uch marotaba buzilganligi holatlari yuzasidan nazorat qiluvchi organ tomonidan rasmiylashtirilgan dalolatnomalar asosida belgilangan tartibda shartnomani (brutto-shartnoma) bekor qilish choralarini ko'rish.

Vakolatli organ brutto-shartnoma tizimi doirasida shahar ichi avtobus yo'naliishlari bo'yicha:brutto-shartnoma asosida tenderga chiqariladigan yo'naliishlarni belgilaydi, ularning pasporti va talablarini ishlab chiqadi;

yo'naliishlarning boshlang'ich narxini shakllantiradi hamda iqtisodiyot va moliya organlari bilan kelishadi;

Tenderda ishtirok etish uchun tender bo'yicha takliflar quyidagi ko'rsatkichlar va axborotlarni (mezonlarni) o'zida aks ettirishi lozim:

a) shahar avtobus yo'naliishlari bo'yicha:

lotga qo'yilgan yo'naliishlarda avtobus bosib o'tadigan har bir kilometr masofaning taklif etilayotgan narxlari darajasi;

avtobuslarning ishlab chiqarilgan yili; avtobuslarda yo'lovchilarga qo'shimcha qulayliklarning mavjudligi;

avtobuslarning tashish uchun taklif qilinayotgan umumiyligi (shu jumladan, yo'lovchi o'rindiqlari soni); avtomobil transportida yo'lovchilarni muntazam tashish sohasidagi ish tajribasi; avtobuslarning ekologik tozaligi;

b) shahar, shahar atrofi va viloyat ichidagi shaharlararo yo'naliishlar bo'yicha:

lotga qo'yilgan yo'naliishlarda, xarajatlarni to'liq qoplashni hisobga olgan holda, yo'lkira uchun qatnashchi tomonidan taklif etilayotgan tariflar darajasi;

avtotransport vositasining toifasi (kategoriyasi) □ (avtobus, mikroavtobus, yengil avtomobil) va klassi hamda ishlab chiqarilgan yili;

avtotransport vositasining yo'lovchilar tashish uchun taklif qilinayotgan umumiyligi (shu jumladan, yo'lovchi o'rindiqlari soni);

yo'naliishdagi qatnovlarning taklif etilayotgan soni;

yo'naliishlarda ishlayotganda harakatlanish xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar rejasi (agar mavjud bo'lsa);

avtobus va mikroavtobusning bazaviy komplektatsiyasida yo'lovchilarga qo'shimcha qulayliklar mavjudligi (iqlim-nazorat tizimi, internet jahon axborot tarmog'i va telefon quvvatlagichlari bundan mustasno);

taklif etilgan barcha avtotransport vositalarini sun'iy yo'ldoshli harakatni kuzatish navigatsiya qurilmalari bilan jihozlash va avtomatlashtirilgan dispetcherlik xizmatiga integratsiya qilish majburiyatini olishi.

v) shaharlararo — viloyatlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha a kichkina banda qayd etilgan mezonlar qo'llanadi (beshinchi xatboshidagi ko'rsatkichdan tashqari).

g) brutto-shartnoma asosida moliyalashtiriladigan yo'nalishlar bo'yicha — b kichkina banda qayd etilgan mezonlarga qo'shimcha ravishda yo'nalishning yakuniy narxi.

d) tender talablarida yo'nalishda saroydan foydalanish koeffitsiyentini 0,8 ga teng deb hisobga olgan holda, yo'nalishdagi avtovositalarining hisoblangan soni.

### **Qatnashchi tender bo'yicha takliflarning barcha bandlariga doir haqqoniy, to'liq va batafsil axborot yuborishga majbur.**

Tender takliflarini yuborishda yo'nalish talabida belgilanganidan ko'p yoki kam sonli avtovositalarini axborot tizimiga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Aynan bitta avtovositalari bir vaqtning o'zida bir nechta tugallanmagan lotlarga hamda amaldagi shartnomaga muvofiq yo'nalishga biriktirilgan avtovositalarining tender taklifi sifatida axborot tizimiga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi (shartnomaning amal qilish muddati tugashiga oltmish va undan kam kun qolganida mazkur shartnomada ko'rsatilgan avtovositalarning axborot tizimiga kiritilishiga yo'l qo'yiladi)

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sohibjon o'gli, S. J. (2024). O 'ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(4), 9-14.
2. Rafiqjon o'g'li, R. R., & Zakirovich, N. I. (2024). ELEKTROBUSLARNI JORIY ETISHDAGI ENERGIYANING TEJALISHI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 4(39), 170-175.
3. Rafiqjon o'g'li, R. R. (2024). ANDIJON VILOYATI YO 'LOVCHI TASHUVCHI AVTOTRANSPOST KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO 'LLARI. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(4), 20-24.
4. Shavkatjon o'g', T. U. S., & Rafiqjon o'g'li, R. R. (2024). SERQATNOV KOCHALARDA TRANSPORT VOSITALARINI HARAKATINI TARTIBGA SOLISH. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(4), 10-19.
5. Raximov, R. R., & Dexqonov, I. S. (2024). YO 'LOVCHILAR OQIMI VA YO 'LOVCHILAR OQIMINI O 'RGANISH USULLARI. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(4), 4-9.
6. Rafiqjon o'g'li, R. R., & Sohibjon o'gli, S. J. (2023). ANDIJON SHAHRIDA JAMOAT TRANSPORTI MUAMMOLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(6), 153-157.
7. Sohibjon o'gli, S. J., & Rafiqjon o'g'li, R. R. (2023). TRANSPORT LOGISTIKASI TIZIMINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI. *TADQIQOTLAR. UZ*, 25(1), 79-83.
8. o'g'Li, R. R. R., & o'g'Li, S. J. S. (2023). *Logistika Tiziming Transport Toshqil Etuvchisi. Ta'Lidagi Zamonaliv Muammolar Va Ularning Ilmiy Yechlari*, 7 (7), 27-33.
9. Raximov, R. (2023). AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO 'RSATUVCHI USTAXONASINI JORIY ERISH AFZALIKLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(1), 280-290.
10. Raximov, R., & Daminov, D. (2023). Transport Vositalari Detallari Resurslarini Kompyuterda Hisoblash. *Modern Educational System And Innovative Teaching Solutions*, 2(2), 75-82.